



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, I-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, may.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqov vich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayev vich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayev vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyev vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyev vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyev vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixojaga o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyev vich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdulkarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI VA UNING BARQARORLIK KO'RSATKICHLARI	18
Nazarov G'ayrat Xayrullayevich	
YUKLARNI TASHISHDA ZARURIY TRANSPORT XUJJATLARI.....	22
Ne'matov Husniddin Alijon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATI HUDUDLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY IMTIYOZ VA PREFERENSIYALARNI SAMARALI QO'LLASH YO'NALISHLARI.....	27
Otamurodova Dildora Abdukrimovna	
GLOBAL BEQARORLIK SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOTNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MODELLARI	32
Saidnazarova Odinabonu Saidolim qizi	
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ИССЛЕДОВАНИЙ В ОБЛАСТИ УЧЕТА И АУДИТА ФИНАНСОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ.....	37
Пулатова Мадина Бейсеновна	
Табаев Азамат Зарипбаевич	
MAJBURIYATMI YOKI MAJBURIY RISK? MOLIYAVIY MAJBURIYATLAR KONSEPTUAL ASOSLARINING IQTISODIY TABIATI VA ZAMONAVIY TALQINLARI.....	42
Palvanov Xusniddin Bekimmatovich	
ПРИНЦИПЫ И МЕТОДЫ УЧЕТА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ В СИСТЕМЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ.....	47
Пу Кебин	
TRANSPORT XIZMATLARI SIFATINI BARQARORLIK NUQTAYI NAZARIDAN O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	51
Xodjaniyazov Elbek Sardorovich	
VILOYAT SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI KO'P OMILLI EMPIRIK MODELLAR ASOSIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH (Qashqadaryo viloyati misolida)	57
Avazova Nafisa Namazovna	
SANOAT KORXONALARI SHOVQINI VA ATMOSFERA CHIQINDILARINING TURAR-JOY HUDUDLARI EKOLOGIYASIGA TA'SIRINI KAMAYTIRISH CHORALARI	61
Saparova Shohida Abduvaliyevna	
SANOAT SHOVQINI VA ATMOSFERA IFLOSLANISHINING SHAHAR TURAR JOY HUDUDLARI VA EKOLOGIYASIGA TASIRINI O'RGANISH.....	65
Shaxyusupova Nilufar Erkin qizi	
BARQAROR SHAHAR RIVOJLANISHIDA SANOAT OQOVA SUVLARINI BIOLOGIK TOZALASH TEXNOLOGIYALARINING ROLI.....	69
Tursunova Aziza Asrorovna	
SHAHAR EKOLOGIK MUHITIGA SANOAT KORXONALARINING TA'SIRINI BAHOLASH.....	75
Imomnazarov Farrux Saibjabbor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AYOLLAR TADBIRKORLIGI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA IQTISODIY KO'RSATKICHLAR TAHLILI.....	78
Xusanova Zulfiya Raxmatullayevna	
KORXONALARDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION BOSHQARUV MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	87
No'monjonova Muazzam Mahbubjon qizi	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	93
Nasimov Ravshanjon Azimovich	



KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	100
Kazakova Zulayho Salaxiddinovna	
THE IMPACT OF DIGITAL LITERACY ON LABOR PRODUCTIVITY IN UZBEKISTAN'S SERVICE SECTOR: A REGRESSION ANALYSIS.....	106
Ismoilov Elyorjon Makhamadali Ugli	
Urinov Bobur Nasilloevich	
EKOLOGIK NIZOLARNI HAL ETISHDA SUD AMALIYOTINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	112
Gapparov Sarvar Xolmurodovich	
ASOSIY FAOLIYAT XARAJATLARINING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI	116
Djumayeva Guzal Axtamovna	
Yadgarova Madina Xasan qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA BANK SOHASIDAGI KIBERJINOYATLAR: TAHLIL, TAHDID VA MUHOFAZA MEKANIZMLARI	120
Xudayarova Xurshida Abdunazarovna	
ПРОБЕЛЫ В МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ СОВМЕСТНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ ТРАНСГРАНИЧНЫХ РЕК ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (НА ПРИМЕРЕ БАСЕЙНА АРАЛЬСКОГО МОРЯ).....	126
Тиллахуджаев Аббосхон	
Дилфуза Шакирова	
Мухамедалиева Сайёра	
Ойбек Камилов	
ALOQA XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O'RNI VA BAHOLASH USULLARI	139
Hazratov Abror Panjiyevich	
STRATEGIC HUMAN RESOURCE MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION: CHALLENGES AND OPPORTUNITIES.....	146
Sultonboyeva Munira Bahodirovna	
Sultanova Kamila Muktorali Kizi	
TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI.....	154
Toshimov Azizbek Hakimovich	
Nomozov G'ofur Abdusalomovich	
DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING ASOSIY YO'NALISHLARI: STRUKTURAVIY TRANSFORMATSIYA VA SAMARADORLIKNI BAHOLASH	158
Izbosarov Bobur Baxriddinovich	
Umirov Sherzod Baxriddinovich	



DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING ASOSIY YO'NALISHLARI: STRUKTURAVIY TRANSFORMATSIYA VA SAMARADORLIKNI BAHOLASH

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot fanlari doktori
Izbosarov Bobur Baxriddinovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi
Umirov Sherzod Baxriddinovich
umirovsherzod32@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada davlat **budjeti** xarajatlarining tarkibiy tuzilishi, ularning makroiqtisodiy barqarorlik va inson kapitalini rivojlantirishdagi strategik roli o'rganilgan. Tadqiqot doirasida O'zbekiston Respublikasi Davlat **budjeti** xarajatlarining **2024–2026-yillardagi** dinamikasi statistik tahlil qilinib, ijtimoiy soha, infratuzilma va iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirish samaradorligi baholangan. Shuningdek, xalqaro tajribaga tayangan holda natijaga yo'naltirilgan **budjetlashtirish** (PBB) tizimini va fiskal intizomni kuchaytirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat **budjeti**, **budjet** xarajatlari, ijtimoiy soha, inson kapitali, makroiqtisodiy barqarorlik, **budjet** taqchilligi, soliq-fiskal siyosat, jamoat xaridlari.

Abstract: This scientific article examines the structural composition of public budget expenditures and their strategic role in ensuring macroeconomic stability and developing human capital. The study provides a statistical analysis of the dynamics of the State Budget expenditures of the Republic of Uzbekistan for 2024–2026 and evaluates the effectiveness of financing the social sector, infrastructure, and economic sectors. Furthermore, based on international experience, practical recommendations have been developed to strengthen performance-based budgeting (PBB) and fiscal discipline.

Keywords: state budget, budget expenditures, social sector, human capital, macroeconomic stability, budget deficit, tax and fiscal policy, public procurement.

Аннотация: В данной научной статье исследованы структура расходов государственного бюджета, а также их стратегическая роль в обеспечении макроэкономической стабильности и развитии человеческого капитала. В рамках исследования проведён статистический анализ динамики расходов Государственного бюджета Республики Узбекистан за 2024–2026 годы, а также дана оценка эффективности финансирования социальной сферы, инфраструктуры и отраслей экономики. Кроме того, на основе международного опыта разработаны практические рекомендации по внедрению системы бюджетирования, ориентированного на результат (PBB), и укреплению фискальной дисциплины.

Ключевые слова: государственный бюджет, бюджетные расходы, социальная сфера, человеческий капитал, макроэкономическая стабильность, бюджетный дефицит, налогово-фискальная политика, государственные закупки.

KIRISH

Global iqtisodiy transformatsiyalar va moliya bozorlaridagi beqarorlik sharoitida davlatning iqtisodiyotdagi ishtiroki hamda uning moliyaviy rinchaglari tubdan yangilanmoqda. Davlat **budjeti** xarajatlari har qanday mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash, inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash hamda uzoq muddatli strategik investitsiyalarni amalga oshirishning moddiy asosi hisoblanadi [1]. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida davlat xarajatlarining tarkibini oqilona shakllantirish, ularning samarasiz yo'nalishlarini qisqartirish va iqtisodiy o'sish drayverlari bo'lgan sohalarga mablag'larni yo'naltirish fiskal siyosatning eng muhim ustuvor vazifalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar doirasida **budjet** tizimining ochiqligi, shaffofligi va natijadorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, fiskal siyosatni



optimallashtirish, **budjet** defitsitini belgilangan me'yorlar doirasida ushlab turish va davlat xarajatlarining har bir so'vidan jamiyat farovonligi yo'lida maksimal darajada foydalanish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi [2]. Ushbu tadqiqot ishi davlat **budjeti** xarajatlarining nazariy-uslubiy asoslarini o'rganish, ularning tarkibiy dinamikasini statistik tahlil qilish va samaradorligini oshirish bo'yicha strategik yo'nalishlarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Davlat xarajatlarining iqtisodiy tabiati va uning o'sish qonuniyatlarini tushuntirishda iqtisodiyot fanida bir nechta fundamental nazariyalar mavjud. Shulardan biri nemis iqtisodchisi Adolf Vagner tomonidan shakllantirilgan "Davlat faolligining o'sib borishi qonuni" (Vagner qonuni) hisoblanadi¹ [3]. Ushbu qonuniyatga ko'ra, mamlakatda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar va sanoatlashuv darajasi oshgani sayin, davlat xarajatlarining yalpi ichki mahsulotdagi (YIM) ulushi ham mutanosib ravishda o'sib boradi. Buning sababi — jamiyatning ta'lim, sog'liqni saqlash, huquqiy tartibot va infratuzilmaga bo'lgan talabining karraga ortishidir.

Ikkinchi tomondan, Jon Meynard Keynes va uning davomchilari davlat xarajatlariga makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi va yalpi talabni tartibga soluvchi asosiy ekzogen omil sifatida qaraydilar²[4]. Keyneslik modeliga muvofiq, iqtisodiy pasayish davrida xususiy sektor investitsiyalari kamayganda, davlat o'z xarajatlarini (ayniqsa, kapital va infratuzilmaviy loyihalarni) ongli ravishda oshirishi shart. Bu multiplikator effekti orqali bandlikni ta'minlaydi va iqtisodiy faollikni qayta tiklaydi. To'liq formula ko'rinishi:

$$\Delta Y = \frac{1}{1 - MPC} (\Delta G + \Delta I)$$

Bu yerda ΔY - milliy daromad, MPC - iste'molga bo'lgan cheklangan moyillik, ΔG - davlat xarajatlari, ΔI - investitsiyalar.

Xalqaro valyuta jamg'armasining (XVJ) "Davlat moliya statistikasi" (GFSM 2014) standartlariga tayanib, xarajatlar ikki yirik usul bo'yicha guruhlanadi:

1. Funktsional tasniflash (COFOG) — davlat mablag'larining bevosita qaysi ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni (ta'lim, mudofaa, sog'liqni saqlash) qondirishga qaratilganini aniqlaydi³[5].

2. Iqtisodiy tasniflash — xarajatlarni ularning iqtisodiy mohiyatiga ko'ra joriy (ish haqi, subsidiyalar, transfertlar) va kapital (transformatsion investitsiyalar, asosiy fondlar qurilishi) guruhlariga ajratadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning obyekti sifatida davlat budjetining xarajatlar qismini shakllantirish va taqsimlash jarayonlari olingan. Tadqiqot predmeti esa davlat budjeti xarajatlarining asosiy yo'nalishlari o'rtasidagi iqtisodiy bog'liqliklar, tarkibiy o'zgarishlar va ularning samaradorligini ta'minlovchi moliyaviy-huquqiy mexanizmlardan iborat.

Tahlil va natijalar

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasining davlat xarajatlari ijtimoiy yo'naltirilganlik xarakterini saqlab qolgan holda, infratuzilmaviy loyihalarni qo'llab-quvvatlashga ham keng mablag'lar ajratmoqda. Quyidagi statistik jadvalda 2024–2026-yillar oralig'idagi dinamika aks ettirilgan (Jadval 1).

Jadval 1. Davlat budjeti xarajatlarining asosiy sohalar kesimidagi tarkibi va prognozi

Tizim va funktsional sohalar	2024-y (Trln)	2025-y (Trln)	2026-y (Trln)
Ta'lim va ilm-fan	44.5	51.2	54.0
Sog'liqni saqlash	31.8	36.5	41.2
Ijtimoiy himoya va nafaqalar	42.1	48.9	52.2
Iqtisodiyot tarmoqlari va invest.	38.2	43.1	45.2
Uy-joy va kommunal xizmatlar	11.5	13.2	14.8
Mudofaa va xavfsizlik	28.4	32.1	14.8
Davlat qarzig'a xizmat ko'rsatish	28.4	32.1	35.6
Boshqa tarmoq xarajatlari	61.2	63.8	71.2
JAMI XARAJATLAR	275.9	313.3	345.7

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

1 Wagner, A. Grundlegung der politischen Oekonomie. Leipzig, 1893. - P. 215.

2 Keynes, J. M. The General Theory of Employment, Interest, and Money. - London, 1936. - P. 110.

3 IMF. Government Finance Statistics Manual 2014 (GFSM 2014). - Washington, D.C., 2014. - P. 64.



Ushbu jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, jami budget xarajatlari tarkibida ta'lim tizimi muttasil o'sish sur'atiga ega bo'lib, 2026-yilga kelib 54,0 trillion so'mga yetishi prognoz qilingan. Shu bilan birga, davlat qarzigina xizmat ko'rsatish xarajatlari hajmi ham sezilarli ravishda oshganini (31,5 trln so'm) kuzatish mumkin. Bu holat jalb qilingan xalqaro kreditlar bo'yicha majburiyatlarning to'lov muddatlari kelganligi bilan izohlanadi⁴.

Budget xarajatlarini iqtisodiy xarakteriga ko'ra tahlil qilganda, joriy xarajatlarning (ayniqsa, ijtimoiy transfertlar va davlat sektori xodimlarining ish haqi) ulushi yuqoriligicha qolmoqda. Biroq, barqaror iqtisodiy o'sishni faqatgina joriy iste'molni moliyalashtirish orqali ta'minlab bo'lmaydi. Kapital xarajatlari, ya'ni yangi texnologiyalar, yo'l-transport kommunikatsiyalari va energetika tizimini modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan mablag'lar iqtisodiyotning uzoq muddatli multiplikativ o'sish drayveridir.

Davlat sektorida mablag'larning sarflanishi har doim ham maksimal darajada shaffof bo'lavermaydi. Buning fundamental sababi iqtisodiyotdagi klassik "Agentlik muammosi" (*Principal-Agent Problem*) bilan bog'liq [7]. Soliq to'lovchi fuqarolar (prinsipal) o'z mablag'larini davlat idoralari (agent) ishonib topshiradilar. Biroq, agentlarda shaxsiy manfaatlarni ustun qo'yish, budget mablag'larini samarasiz smetalar orqali o'zlashtirish yoki samarasiz loyihalarga yo'naltirish motivlari yuzaga kelishi mumkin.

O'zbekistonda ushbu muammoni hal qilish maqsadida "Tashabbusli budget" (*Open Budget*) loyihasi joriy etildi. Bu tizim orqali aholi budget mablag'larining muayyan qismini bevosita o'z hududidagi dolzarb muammolarni (maktab ta'miri, ichimlik suvi, yo'llarni sozlash) hal qilishga yo'naltirmoqda. Bu esa xarajatlardan ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishning eng samarali usulidir.

Davlat budgetidan yirik tarmoqlarga, ayniqsa energetika va kommunal sohalarga ajratilayotgan subsidiyalar miqdori hamon yuqoriligicha qolmoqda. Energoresurslar uchun belgilangan tariflarning bozor narxlaridan pastligi va ular o'rtasidagi farqning budget hisobidan qoplanishi moliya tizimiga bosim o'tkazadi [8]. Fiskal tizim barqarorligini saqlash uchun subsidiyalarni bosqichma-bosqich optimallashtirish va manzilli ijtimoiy yordam tizimiga o'tish talab etiladi.

Rivojlangan mamlakatlar (AQSh, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya) tajribasi shuni ko'rsatadiki, an'anaviy xarajatlari smetasini moliyalashtirish modeli o'zini oqlamaydi. Bugungi kunda eng ilg'or xalqaro mexanizm — "Natijaga yo'naltirilgan budgetlashtirish" (*Performance-Based Budgeting – PBB*) hisoblanadi [9].

Ushbu tizimning asosiy tamoyili quyidagicha: davlat tashkilotlariga mablag'lar ularning faqat mavjudligi yoki shtat birligi uchun emas, balki erishishi lozim bo'lgan aniq maqsadli ko'rsatkichlari (*Key Performance Indicators – KPI*) asosida ajratiladi. Agar vazirlik yoki idora unga yuklatilgan strategik rejani bajara olmasa, keyingi yil uchun uning budget xarajatlari qisqartiriladi. Bu tizim har bir ajratilgan mablag'ning yakuniy ijtimoiy natijadorligini kafolatlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat budgeti xarajatlarining tarkibiy va tizimli tahlili asosida quyidagi ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirildi:

- Ijtimoiy ustuvorlikni saqlash:** O'zbekiston sharoitida ta'lim va sog'liqni saqlash xarajatlarining yuqori sur'atlarda saqlanib qolishi inson kapitalini uzoq muddatli rivojlantirish uchun zarur poydevorni yaratadi.
- PBB tizimiga o'tish:** Davlat idoralari moliyalashtirish tizimini shunchaki xarajat smetasini bajarishdan emas, balki aniq KPI ko'rsatkichlariga bog'langan "natijaga yo'naltirilgan model"ga to'liq o'tkazish zarur.
- Jamoatchilik nazoratini kengaytirish:** "Tashabbusli budget" uchun ajratiladigan mablag'lar ulushini oshirish orqali korrupsiya xavflari va davlat xaridlaridagi shaffoflik muammolarini bartaraf etish mumkin.
- Fiskal intizom:** Davlat qarzining oshib borishi sharoitida budget defitsitini YIMga nisbatan 3 foizlik xavfsiz koridordan oshirmaslik strategik barqarorlikning bosh mezonini hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Vahobov A.V., Malikov T.S. *Davlat moliyasi. Darslik*. - T.: "Iqtisod-Moliya", 2018. - 452 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. "Fuqarolar uchun budget" axborot nashri. - Toshkent, 2025. - 34 b.
3. Wagner, A. *Grundlegung der politischen Oekonomie*. Leipzig, 1893. - 530 p.
4. Keynes, J. M. *The General Theory of Employment, Interest, and Money*. - London: Palgrave Macmillan, 1936. - 400 p.
5. International Monetary Fund. *Government Finance Statistics Manual 2014 (GFSM 2014)*. - Washington, D.C.: IMF, 2014. - 512 p.

4 Axmedov D.K. O'zbekistonda davlat moliyasini boshqarish islohotlari. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. - T., 2024. - №3. - B. 45.



6. Axmedov D.K. O'zbekistonda davlat moliyasini boshqarish islohotlari. // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. - T., 2024. - №3. - B. 41-49.

7. Stiglitz, J. E. *Economics of the Public Sector*. - W. W. Norton & Company, 2015. - 920 p.

8. Tanzi, V. *Government versus Markets: The Changing Economic Role of the State*. - Cambridge University Press, 2011. - 380 p.

9. Schick, A. *The Metamorphosis of Performance Budgeting*. // *OECD Journal on Budgeting*. - 2019. - Vol. 19/2. - P. 23-41.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>